


NAVOIY VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2025-yil 1- avgust holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

- I. Korxona va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

I. Korxona va tashkilotlarning soni

2025- yil 1- avgust holatiga ko'ra, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 20 396 tani tashkil etadi, shundan 17 856 tasi yoki 87,5 foizi kichik korxona va mikrofirmalardir. 2024- yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 97,4 foizni, jumladan, kichik biznes va mikrofirmalarda – 96,2 foizni tashkil etdi.





Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda)

Yil	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	Kichik biznes subyektlari
2025	20 396	17 953	17 856
2024	20 947	18 650	18 560
2023	22 299	20 092	19 996
2022	24 059	21 860	21 760
2021	21 729	19 575	19 490

Hududlar bo'yicha eng ko'p faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar Navoiy shahrida – 24,8 foiz, Karmana – 16,1 foiz, Qiziltepa – 13,4 foiz, Xatirchi – 10,1 foiz va Navbahor 9,7 foiz tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining umumiyligi sonidagi salmoqli ulushi G'ozg'on shahrida – 92,2 foiz va 92,2 foiz, Zarafshon shahrida – 89,7 foiz va 89,2 foiz, Karmana – 91,5 va 91,1 foiz, Qiziltepa – 90,2 foiz va 90,0 foiz hamda Navbahor – 89,7 va 89,5 foiz tumanlariga to'g'ri keldi.

Hududlar	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	Kichik biznes subyektlari
Navoiy shahar	5049	4421	4382
Zarafshon shahar	1353	1213	1207
G'ozg'on shahar	449	414	414
Konimex tumani	958	815	805
Qiziltepa tumani	2728	2461	2456
Navbahor tumani	1972	1768	1764
Karmana tumani	3285	3007	2991
Nurota tumani	1355	1147	1142
Tomdi tumani	459	367	364
Uchquduq tumani	737	608	603
Xatirchi tumani	2051	1732	1728

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)


[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)



Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning (tadbirkorlik subyektlari va kichik biznes sub'yektlarining) eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida qolmoqda, ularning ulushi 2025- yil 1- avgust holatiga 37,2 foizni (42,2 foiz va 42,4 foiz) tashkil etdi.



Korxona va tashkilotlar


Ikkinchi o'rinda "Sanoat" 12,7% (14,3% va 14,2%), uchinchi o'rinda "Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi" 10,7% (12,0% va 12,1%).

Birgalikda ushbu uch turdag'i faoliyat ularning umumiyligi sonining 60% dan ortig'ini tashkil qiladi.

Korxona va tashkilotlar	shundan:		
	Tadbirkorlik subyektlari	shundan:	
		Kichik biznes subyektlari	
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2 185	2 161	2 153
Sanoat	2 585	2 575	2 544
Qurilish	1 154	1 141	1 138
Savdo	7 585	7 585	7 576
Tashish va saqlash	712	710	705
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 310	1 306	1 302
Axborot va aloqa	288	276	276
Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	511	303	301
Boshqa turlar	4 066	1 896	1 861

II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2025-yil 1-avgust holatiga ko'ra, 17 953 ta faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalaridan 11 669 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tashkil etilgan bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.




Shundan kelib chiqib, MChJlar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	11 669	65,0
Xususiy korxonalar	3 346	18,6
Oilaviy korxonalar	2 836	15,8
Aksiyadorlik jamiyat	16	0,1
Boshqalar	86	0,5

III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'naliishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 286 ta korxonalardan 113 tasi qo'shma korxonalar va 173 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar

2025-yilning 1-avgust holatiga ko'ra xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning soni, 2024-yilning mos davriga nisbatan 65 taga oshgan. Bu asosan, sanoat sohasidagi korxonalar sonining 118 tadan 162 taga, (o'sish 44 taga), qurilish sohasida 12 tadan 23 taga (o'sish 11 taga) hamda savdo sohasida 33 tadan 41 taga (o'sish 8 taga) ko'payishi hisobiga yetdi.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	286	113	173
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	17	7	10
Sanoat	162	77	85
Qurilish	23	4	19
Savdo	41	11	30
Tashish va saqlash	6	2	4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4	1	3
Axborot va aloqa	13	2	11
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	4	1	3
Boshqa turlar	16	8	8



Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar tahlil qilganda, yetakchi o'rinni 105 ta korxona bilan Xitoy davlati egalladi. Bu viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiyligi sonining 36,7 foizini tashkil etdi. Viloyat iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shayotgan mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi (15,0%), Turkiya (8,7%), Qozog'iston (4,9%), Eron (4,5%) va Janubiy Koreya (3,8%) ham alohida o'rinni egallaydi.

Davlatlar	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	286	113	173
Xitoy	105	31	74
Rossiya	43	15	28
Turkiya	25	8	17
Qozog'iston	14	6	8
Eron	13	7	6
Janubiy Koreya	11	7	4
Tojikiston	9	3	6
Hindiston	8	6	2
AQSH	7	5	2
BAA	4	3	1
Belorusiya	3	2	1
Turkmaniston	3	1	2
Germaniya	2	-	2



IV. Korxonalar va tashkilotlarning demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 28- sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-sون qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi..

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnomasi tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2025- yil 1- avgust holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi..

Metama'lumot uchun havolalar:

[Metama'lumot Korxonalar va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

Mavzuga doir ko'rsatkichlar::

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtiroyida qilingan korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatni qilingan korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(iqitsodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Soq'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:

Raqamlashtirish va statistik
registrlarni yuritish bo'limi

Ijrochi:

N. Xatamova
79 223-62-47

Maznil:

210100, Navoiy sh.,
Amir Temur ko'chasi, 4